



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

BUYRAK TOSH KASALLIGI Xoshimova Durdona Fazliddin qizi

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotation

Buyrak-tosh kasalligi buyrak va siydk yo'llarida tosh paydo bo'lishidan kelib chiqdigan kasallikdir. Buyrak-tosh kasalligi dunyoning barcha mamlakatlarida uchraydi, shunga qaramay u bir tekisda tarqalmagan va ko'pincha endemik harakterda bo'ladi. Buyrak-tosh kasalligi barcha urologik kasalliklarning 30-40% ni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Urolitaz, diyetoterapiya, sekretor anuriya, ekskretor anuriya, reflector anuriya, buyrak sanchig'i, gematuriya, piuriya, Pasternatiskiy simptom, oliguriya, anuriya.

Аннотация

Мочекаменная болезнь-заболевание вызванное образованием камней в почках и мочевыводящих путях. Мочекаменная болезнь встречается во всех странах мира, однако распространена неравномерно и часто носит эндемический характер. Мочекаменная болезнь составляет 30-40% всех урологических заболеваний.

Ключевые слова: Мочекаменная болезнь, диетотерапия, секреторная анурия, экскреторная анурия, рефлекторная анурия, почечная колика, гематурия, пиурия, симптом Пастерната, олигурия, анурия.

Annotation

Kidney stones are a disease caused by the formation of stones in the kidneys and urinary tract. Kidney stones occur in all countries of the world, however, they are not evenly distributed and are often endemic. Kidney stones account for 30-40% of all urological diseases.



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

Keywords: Urolithiasis, diet therapy, secretory anuria, excretory anuria, reflex anuria, renal colic, hematuria, pyuria, Pasternat's symptom, oliguria, anuria.

Buyrak-tosh kasalligi buyrak va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lishidan kelib chiqdigan kasallikdir.Buyrak-tosh kasalligi dunyoning ko'p qismida uchraydi.Ushbu kasallikning paydo bo'lishiga olib keladigan sabablardan biri tashqi muhit sharoitlari ekanligini inkor etib bo'lmaydi.Masalan, issiq iqlim sharpoiti buyrak-tosh kasalligini keltirib chiqaradi,teri orqali ko'p suv yo'qotish natijasida siydik konsentratsiyasi oshadi,siydik tuzlarga o'ta to'yinib qoladi,ular cho'kmaga tushib,toshlar hosil qiladi.Buyrak-tosh kasalligi barcha urologik kasalliklarning 30-40% ni tashkil etadi.Bu kasallik hamma yoshdagi odamlarda uchraydi.

Buyrak –tosh kasalligi kelib chiqishida bir nechta omillar mavjud:

1.Metabolik omillar

Kalsiyning ko'pligi.Giperparaterioz,D vitamin ortiqligi,yoki kalsiyni ko'p miqdorda iste'mol qilish natijasida siydikda kalsiy miqdori ortib ketadi.

Oksalat miqdorining ko'pligi:Oksalatga boy oziq ovqatlar (ismaloq,shokolad,yong'oqlar)ko'p iste'mol qilish.

Siydik kislotasi ortishi.Purinlarga boy oziq –ovqatlar (go'sht,baliq)iste'moli ko'p bo'lsa.

3.Oziqlanish odatlari

Tuzning ko'p iste'moli,hayvoniy oqsillarni haddan tashqari ko'p iste'mol qilish toshlari hosil bo'lish xavfini oshiradi.

4.Genetik omillar

5.Siydik yo'llari infeksiyalari

6.Siydik yo'llarining anamoliyasi.Anatomik buzilishlar siydik oqimini to'xtatib,toshlar uchun qulay sharoit yaratadi.

7.Dori vositalari.

Buyrak-tosh klinikasida toshlar bilinmasligi ham mumkin.Odatda bu kasallikning tipik belgilaridan buyrak sabchig'I,,gemoturiya va toshlarning siydik bilan chiqishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Buyrak sanchig'i bel va yonbosh sohalariga kuchli,chidab bo'lmas darajada og'riq bo'lishi bilan harakterlanadi.Og'riq pastga,qovuqqa,jinsiy a'zolarga,mayakka,song'a



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

beriladi.Ba'zan bemorda ko'ngil aynishi,qayt qilish,qorinning shishishi,tana harorati ko'tarilishi kuzatiladi.Og'riq buyrak jomining siydkka to'lib taranglashishidan kelib chiqadi.Toshning pastga siljishi tufayli bemorlar tez tez siydk qistashidan shikoyat qiladilar.Siydik –tosh kasalligining muhim simptomni siydk bilan tosh ajralib tushishidir.O'tkazuvchanlik tiklangandan keyin og'riq to'xtaydi.Og'riq yurganda,tana vaziyati o'zgarganda kuchayishi mumkin.Pasternatskiy simptomni ham paydo bo'ladi.

Anuriya siydk-tosh kasalliklarida 2,5% hollarda uchraydi va bemor hayoti uchun xavf tug'diradi.Buyrak va siydk yo'llarining tosh kasalliklarida anuriyaning 3 turi kuzatiladi.

1.Sekretor anuriya

2.Ekskretor anuriya

3.Reflektor anuriya

Tashxis asosan,anamnez va labaratoriya,rentgenologik,ultratovush bilan tekshirishlar asosida aniqlanadi.

Davolash quyidagi tartibda olib boriladi:

a)og'riqqa qarshi davo

b)infeksiyani yo'qotish

d)nefro- va uretrilitaz qaytalanishning va asoratlarining oldini olish

e)toshlarni eritish uchun hamma imkoniyatlarni ishga solish

(elektrogidravlik,litotripsiya)

Diyetoterapiya toshlar tarkibini hisobga olgan holda tavsiya etiladi. Dori darmonlar bilan davolashda asosiy muammo toshlarni eritish uchunmo'ljallangan dorilarni berishdan iborat.

Tibbiyot hamshirasi buyrak sanchig'ida bemor hushdan ketish mumkinligini yodda tutishi va yurak qon tomir dorilarini taxt qilib qo'yishi lozim.

Buyrak sanchig'I buyrak-tosh kasalligining asosiy va og'ir asoratidir.Bu holat toshning to'satdan qimirlashi va siydk yo'lida to'siq,dimlanish oqibatida kelib chiqadi.Buyrak sanchig'I siydk yo'llari silliq muskullari spastik qisqarishi natijasidir.

Xuruj to'satdan boshlanadi,uning paydo bo'lishiga qattiq jismoniy zo'riqish,silkitadigan yo'lda yurish ,shikastlanish bevosita turtki bo'lishi



E CONF SERIES



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

30th May, 2025

mumkin.Juda ko'p miqdorda suyuqlik iste'mol qilganda ,ba'zan mutloq tinch holatda ,kechasi uxlayotgan vaqtda ham boshlanishi mumkin.

Xuruj klinikasida –belning u yoki bu qismida to'satdan qattiq achishtiruvchi og'riq bo'lib,vaqt vaqt bilan to'xtab,qaytalanib turadi.Og'riq siyidik chiqaruv yo'li bo'ylab va siyidik qopi tomonga,chov sohasiga ,jinsiy a'zolarga tarqaladi.

Siydikda qon paydo bo'ladi,bemor rangi oqorgan uni sovuq ter bosadi,ko'ngli aynib ,qayt qiladi,ichak parezi bo'lib,oliguriya,anuriya kelib chiqadi.Xuruj bir necha soat va bir necha kunlab davom etishi mumkin.

Hamshira shoshilinch yordamda bemorga issiq muolajalar:bel sohasiga issiq grelka,vaziyatdan kelib chiqib issiq vanna qilishi kerak.Shifokor ko'rsatmasiga binoan og'riq qoldiruvchi va spazmolitik moddalar yuboriladi,agar og'riq to'xtamasa narkotiklar qo'llaniladi.Davolash muolajalari natija bermaganda bemor urologiya bo'limiga yotqiziladi

Adabiyotlar:

- 1.Terapiya **Muallif:**M.F.Ziyayeva Toshkent-“ILM ZIYO”-2007
- 2.Terapiya Muallif:A.G.Gadayev,X.S.Axmedov Toshkent 2018
3. Internet ma'lumotlari.